



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 28-yanvar, chorshanba,
8 (24.188)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ishi
kechning
kuni
kech

Deputatlikka nomzodlar ro'yxatga olindi

Viloyat hududiy saylov komissiyasining navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi. Komissiya raisi O.Toshniyozov boshqargan yig'ilishda xalq deputatlari viloyat Kengashining bo'shab qolgan 58-Jozmon saylov okrugida shu yilning 15-fevral kuni o'tkaziladigan saylov uchun uchastka saylov komissiyalari tarkibini tasdiqlash hamda siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish to'g'risidagi masalalar muhokama etildi.

Komissiya a'zolari okrug bo'yicha tuzilgan 19 ta saylov uchastkasining komissiyalari tarkibini tasdiqladilar.

Majlisda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi va O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashlarining arizalari asosida ular tomonidan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish to'g'risida qaror qabul qilindi.

58-Jozmon saylov okrugi bo'yicha xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi deputatligiga nomzodlar ro'yxati

Familiyasi, ismi, otasining ismi	Tug'ilgan yili	Partiyaga mansubligi	Ish joyi va egallab turgan lavozimi	Yashash joyi	Nomzod ko'rsatgan organning nomi
Amonov Zuhridin Hamroqul o'g'li	1993	O'zbekiston Ekologik partiyasi	Samarqand viloyati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i	Urgut tumani	O'zbekiston Ekologik partiyasi viloyat kengashi
Begaliyev Zuxridin Sultonmurodovich	1986	O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi	"Asaka" bank Samarqand filiali boshqaruvchisi	Toyloq tumani	O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat kengashi
Boboyev Adiz Muzafarovich	1972	Partiyasiz	Samarqand viloyati hokimi	Samarqand shahri	Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Nuriddinova Gulshoda O'limasqulovna	1983	O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi	Samarqand davlat universiteti Urgut filiali dekan o'rinbosari	Urgut tumani	O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi
Uralova Faroxat Axmadovna	1966	O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi	Urgut tumani Xalqobod mahallasi xotin-qizlar faoli	Urgut tumani	O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashi

MADHIYANI HURMAT QILMAYDIGANLARNI biznes forumga taklif etish xato emasmi

Sarlavhani shunday qo'yishimga yaqinda Samarqand shahrida o'tkazilgan xalqaro biznes forum va u yerdagi holat sabab bo'ldi. Forumning nufuzi baland edi. Unda ikki davlat hukumati, savdo-sanoat palatalari a'zolari, nufuzli kompaniyalar vakillari va yirik tadbirkorlar jam bo'ldi. Biz uchun e'tiborli tomoni – ushbu davlat endigina biz bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, o'z bozorida o'zbekistonlik tadbirkorlarga keng o'rin va shu bilan birga imtiyoz, imkoniyatlar berish niyatida ekan.



Foto: Sun'iy intellekt

Dastlab Toshkentda ikki davlat ishbilarmonlari forumi o'tkazildi, keyin Samarqandda shunday anjuman tashkil etildi. Samarqanddagi forumda viloyat tadbirkorlari bilan birga qo'shni viloyatlardan ham yirik ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatish tarmoqlari vakillari qatnashdi.

Odatda, bunday anjumanlarga bozorda o'z o'rnini topgan, xorijiy davlatlarga o'z mahsulot va xizmatlarini taklif eta oladigan yoki shu niyatdagi tadbirkorlar taklif etiladi. Chet mamlakatlarda o'tkaziladigan biznes forumlarda ham shunday tadbirkorlarimiz qatnashganiga ko'p guvoh bo'lganman. Xullas, nomdor mehmonxonaning katta zalida 300-350 kishiga joy hozirlangan, har bir ishtirokchi uchun stol ustida qog'oz-qalam, suv, sinxron tarjima uchun quloqchigacha qo'yilgan. Garchi tashqari sovuq bo'lsa-da, zal ichida mo'tadil harorat ta'minlangan, bemaol yengil kiyimda o'tirish mumkin edi. Ammo ayrim ishtirokchilar mehmonxonada ustki kiyimlarni qoldiradigan joy bo'lishiga qaramay, palto va po'stinlarini o'zi o'tirgan stulga tashlab qo'yib o'tirgan. Albatta, noqulay bo'lgan bu holat forum tashkilotchilari e'tiboridan chetda qolmadi va ular o'sha ishtirokchilardan kiyimlarini tashqaridagi muxsus joyga qo'yib kelishlarini so'rashdi. Bunday gapni eshitganlar xijolat bo'lib, uzr so'ragan holda tashqariga chiqsalar kerak, deb o'yilagandim. Xato qilgan ekanman, ular "bir men emas, boshqalar ham shunday o'tiribdi-ku" deb go'yo haqligini isbotlayotgandek tutdi o'zini.

Zalda bo'lganlarning ba'zilar esa qo'l telefonini ovozsiz rejimga qo'yimagani yetmagandek, shu yerda ko'ng'iroqlarga javob berib, bemaol, baland ovozda gaplashishi ham atrofdagilarning e'tiborini o'ziga jalb qildi.

Ana shunday ko'ng'iraxilik bilan boshlangan tadbir avvalida ikki davlat madhiyalari yangrashi e'lon qilindi. Hamma o'rnidan turdi. Mamlakatimiz davlat madhiyasi jarang sochdi. Tegishli qonunga ko'ra, davlatimiz madhiyasi ko'pchilik huzurida ijro etilganda, hozir bo'lgan kishilar, ya'ni yurtdoshlarimiz madhiyani tik turib va o'ng qo'l kaftini ko'krakning chap

tomoniga qo'yib, harbiy yoki davlatning boshqa xizmatidagi maxsus kiyimdagi shaxslar esa qo'lini bosh kiyimiga qo'yib tinglashi lozim. Bu har bir yurtdoshimizning vatanparvarlik burchi hisoblanadi. Bunday paytda madhiya birgalikda ijro etilsa, qanday chiroyli manzara, muhit hosil bo'lishiga ham ko'pchiligimiz amin bo'lganmiz.

Afsuski, bu galgi forumda madhiya yangrayotganda zalda bo'lganlar orasida qo'lini ko'ksiga qo'ymaganlar ham, yon-atrofga olazarak qarayotganlaru qo'l telefoni bilan ovora bo'lganlar ham bor edi.

Keyin hamkor davlat madhiyasi musiqasi yangradi. Ana shunda mehmonlarning barchasi viqor bilan turib, o'z davlati qo'shig'ini pichirlab bo'lsa-da aytayotgani, ekrandagi davlat bayrog'iga g'urur-la boqib turganini ko'rib, to'g'risi, bir lahza oldingi o'zimizning holatdan uyaldim va ayni chog'da ularga havas qildim...

Biz zaminimiz qadimdan sivilizatsiya markazi bo'lgani, lpak yo'lining chorrahasi sifatida G'arb va Sharqni bog'lagan, ajdodlarimiz esa savdo-sotiq, tadbirkorlik bobida boshqa yurt savdogarlariga ibrat bo'lganidan faxrlanib gapiramiz, savdo-sotiq bilan birga madaniyat yuksalganini aytamiz. Bugun-chi? Mamlakatimizda tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, ishbilarmon xalqimizning bu boradagi salohiyati yuzaga chiqayotgani haqiqat, bundan g'ururlan-amiz, albatta. Boshqa mamlakatlarni bilmadim, lekin bizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan rasman "Tadbirkorlar kuni" belgilangan. Bu soha vakillarining erkin faoliyat ko'rsatishi uchun shaxsan Prezident kafil bo'lmoqda va ular bilan har yili bevosita muloqot qilishi an'anaga aylandi. Va bu e'tiborga munosib bo'lgan ko'plab tadbirkorlarimiz nafaqat yurtimiz, hatto xorijda ham tanilib, o'z o'rnini topmoqda va O'zbekistonni, o'zbek ishbilarmonlarining nimalarga qodirligini ko'rsatmoqda.

Chet ellik investorlarni birinchi navbatda, yurtimizdagi qulay tadbirkorlik muhiti, adolatli qonun va tartib-qoidalar qiziqtiradi. Shu bilan birga, ular o'zlari hamkorlik qilmoqchi

bo'lgan tadbirkorning ishbilarmonligidan tashqari qanchalik vatanparvarligi, o'z yurti va yurt-doshlarini sevishini ham e'tiborga oladi.

Xorijiy davlatlardagi iqtisodiy forumlar, ko'rgazmalarda muntazam qatnashib yurgan rahbarlardan biri "chet ellik tadbirkor bilan gaplashganingizda uning tilini bilmasangiz, siz bilan tarjimon orqali suhbatlashishdan og'rinmaydi, lekin yuzingizda tabassum bo'lmasa, O'zbekiston haqida yetarli ma'lumot bera olmasangiz va g'ururingiz bo'lmasa, sizga ishonmaydi va hamkorlik qilmaydi" degandi.

Nazarimda, mana shu fikr ham tadbirkorlarimiz uchun qaysidir ma'noda ogohlantirishdek gap.


Yaqinda Samarqand shahridan Toyloq tumaniga kiraverishda 7-8 metrli metall ustunda yurtimiz bayrog'i ilib qo'yilgani e'tiborimni tortdi. Yo'l-yo'lakay mahallalar, kichik korxona va tashkilotlar oldida ham bayrog' ilingan ustunlarni ko'rdim. To'g'ri, hozir har bir xonadon eshigi oldida davlatimiz bayrog'ini o'rnatish mumkin. Ilgari faqat hokimlik yoki boshqa davlat idoralari binosi tepasida yoki peshtoqi-da davlat bayrog'i o'rnatilishiga o'rganib qolganimiz uchun kichik muassasalar, korxonalar oldidagi bunday manzara ko'zimga boshqacha ko'rindi, lekin ko'nglimda g'urur uyg'otdi. Yo'l ustidagi kichik bir ishlab chiqarish sexi binosi oldida ham bayrog' o'rnatilganini ko'rib, tadbirkordan buning boisini so'raganimda shunday javob berdi:

– Yaqinda mahallamizdan bir qizni Turkiyaga kelin qilib olib ketishdi. Bizda kelinni uydan olib chiqishayotganda boshiga kashta tashlab qo'yishadi. Qizning yaqinlari shu odatni qilib, kashta tashlaganlarida turkiyalik qudalar kelinning boshiga o'zlari bilan olib kelgan Turkiya bayrog'ini tashlashdi va "endi u bizning vatandoshimiz va Turkiyaning himoyasida bo'ladi" deyishdi. Qarang, oddiy bir insonning davlat himoyasida ekanligini bildirish uchun unda bayroqqa nisbatan hurmat, g'urur uyg'otishyapti. Shundan keyin nega endi men tadbirkor sifatida o'z davlatim muhofazasida ekanligimni bildirish uchun bayrog' o'rnatmasligim kerak, dedim-u bino oldiga bayrog'imizni ilib qo'ydim.

O'zbekistonni namoyon etadigan biznes forumlarga, nufuzli anjumanlarga ana shunday fikrdagi tadbirkorlar qatnashishi kerak emasmi?

G'olib HASANOV.

Markaziy Osiyodagi eng yirik qog'oz fabrikasi Samarqandda qurilishi mumkin



Qirg kunda 27 million so'm daromad qilishni istaysizmi?

– Kambag'al oilaga bitta motokultivator yoki elektr pech berish, qog'ozda ishga joylashtirish bilan ularni ro'yxatdan chiqarish amaliyotiga chek qo'yiladi, – deydi viloyat hokimining birinchi o'rinbosari Sh.Bo'ronov. – Avvalo, kambag'al oilaning real daromadi hisobga olinadi, turmush tarzi o'zgardimi-yo'qmi – shunga e'tibor qaratamiz. Kambag'al oilaga turli xil kreditlar rasmiylashtirib, uni battar og'ir holatga solib qo'ymaslik kerak.



Urgutning qaysi maktablarida qurilish-ta'mirlash ishlari olib boriladi?



Maktab o'quvchisi AQSh universitetining 120 ming dollarlik grantini qo'lga kiritdi



Samarqand shahri modernizatsiya qilinadi

Yaqinda Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi majlisida mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab beruvchi muhim dasturiy hujjat — 2026-2030-yillarga mo'ljallangan “O'zbekiston-2030” strategiyasining yangilangan loyihasi ko'rib chiqildi.



Yig'ilishda strategik maqsadlarni hududiy darajada amalga oshirishning uzviy davomi sifatida Oliy Majlis Senatining “Samarqand viloyatining Samarqand tumanini tugatish, Oqdaryo, Past Darg'om, Toyloq tumanlari va Samarqand shahri chegaralarini o'zgartirish to'g'risida”gi qarori loyihasi ham muhokama etildi.

Loyihaga ko'ra, Samarqand shahar hududini kengaytirish, investitsion va turistik jozibadorligini oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari, xizmat ko'rsatishning yangi turlarini yaratish choralarini ko'riladi.

Samarqand shahri tarkibiga 17226,6 gektar, jumladan, Oqdaryo tumanidan 1410,6 gektar (shundan, 677 gektar qishloq xo'jaligi yerlari), Past Darg'om tumanidan 1242,3 gektar (shundan, 93,7 gektar qishloq xo'jaligi yerlari), Samarqand tumanidan 13308 gektar (shundan, 3892,8 gektar qishloq xo'jaligi yerlari) va Toyloq tumanidan 1265,6 gektar (shundan, 631 gektar qishloq xo'jaligi yerlari) yer maydoni qo'shiladi.

Samarqand shahridan 518 gektar, Samarqand tumanidan 1551 gektar yer Past Darg'om tumani tarkibiga o'tkaziladi.

Samarqand tumanining qolgan 28295 gektar yer maydoni Toyloq tumaniga o'tkazilib, Samarqand tumanini tugatish nazarda tutilmoqda.

Bunda Samarqand tumanining bo'shayotgan shtat birliklari Samarqand shahriga o'tkaziladi.

Samarqand shahrining hududiy kengayishi shunchaki geografik o'zgarish emas, balki mintaqaning ijtimoiiy-iqtisodiy qiyofasini tubdan o'zgartiruvchi strategik qadamdir. Ushbu loyiha shaharni tarixiy meros va zamonaviy texnologiyalar uyg'unlashgan megapolisga aylantirishga qaratilgan.

Jumladan, shahar hududining kengayishi aholi joylashuvi va infratuzilmani boshqarishda yangi bosqichni boshlab beradi.

Aholi soni 880000 kishiga yetadi va “millionli shahar” maqomiga yaqinlashadi.

Ma'muriy binolar va xizmat ko'rsatish obyektlarini yangi hududlarga ko'chirish orqali tarixiy markazdagi tirbandlik muammosi bartaraf etiladi. Muhimi, tartibsiz qurilishlar kamayib, rejalashtirilgan zamonaviy uy-joy massivlari barpo etiladi.

Bundan tashqari, “millionli shahar”da iqtisodiy va investitsiyaviy

imkoniyatlar ham keng bo'ladi. Jumladan, yangi yer maydonlari yirik loyihalar uchun zamin yaratib, xorijiy va mahalliy investitsiyalar oqimini ko'paytiradi. Bo'sh yerlarda yangi kichik sanoat zonalarini, texnopark va yuqori texnologiyali korxonalar tashkil etiladi.

Qurilish, xizmat ko'rsatish va sanoat sohalarida o'n minglab yangi ish o'rinlari yaratilib, aholi daromadlari oshiriladi.

Yana bir muhim tomoni shundaki, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish orqali shaharning faqat bir yo'nalishga bog'lanib qolishining oldi olinadi.

Darvoqe, shahar hududining kengayishi turizm va xizmat ko'rsatish salohiyati bo'yicha ham yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Bunda sayyohlik yo'nalishlari faqat Registron, Amir Temur maqbarasi yoki Shohi Zinda bilan cheklanib qolmay, yangi hududlardagi obyektlarni ham qamrab oladi. Masalan, “Ipak yo'li” muzeyini qurish loyihasi tayyorlanyapti. Loyihaga ko'ra, maydoni 19,5 ming kvadrat metrni tashkil etadigan uch qavatli zamonaviy binoda inklyuziv muhit, ko'rgazma zallari, eksponatlarni saqlash fondlari, shuningdek, ta'lim olishga mo'ljallangan hududlar yaratiladi.

Shuningdek, xalqaro talablarga javob beruvchi mehmonxonalar, ko'ngilochar markazlar va zamonaviy servis turlari ko'paytiriladi.

Aholi hayot sifatini yaxshilash maqsadida bosqichma-bosqich muhandislik tarmoqlari to'liq yangilanadi. Xususan, yangi hududlarni markaz bilan bog'lovchi ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar va jamoat transportining (tramvay, yangi avtobuslar) yagona boshqaruv tizimi yaratiladi. Yangi hududlarga ichimlik suvi, kanalizatsiya, elektr va gaz tarmoqlari kirib boradi.

Shuningdek, o'tkazilayotgan 6 263 gektar yerlarning toifalari o'zgartirilmagan holda saqlanadi, bu esa maqsadli foydalanishni ta'minlaydi.

Jarayonning eng dolzarb vazifasi qishloq xo'jaligi yerlarini saqlab qolish va ekologik muvozanatni buzmaslikdir.

Qayd qilanganiдек, mazkur loyiha davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “odamlarni hayotdan rozi qilish” tamoyilining amaliy ifodasi sifatida Samarqandning xalqaro megapolis nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maryam NIYOZOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Menejerlik sertifikatiga ega zaxira tayyorlanishi kerak

Yangi tartibga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarini tanlash jarayonini direktorlar kengashi hal qiladi. To'g'rirog'i, direktorlar kengashining suhbatidan o'tgan nomzod g'irash tavsiasiga asosan hududiy boshqarmalar tomonidan maktab direktorligi lavozimiga tayinlanadi. Bunday tartib Prezidentimizning 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining “Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlar kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi buyrug'ida belgilangan.

Vakant direktor lavozimiga menejerlik sertifikatiga ega nomzodlar hujjat topshira oladi. Masalaning yana bir nozik tomoni menejerlik sertifikatiga ega nomzodlarning hammasi ham suhbatdan o'ta olmaydi. Bo'lajak direktordan bilim, tajriba va rahbarlik qobiliyati talab etiladi.

Fakt va raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, o'tgan yil viloyat direktorlar kengashi tomonidan 97 nafar nomzod suhbatdan o'tgan va viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tomonidan direktorlikka tayinlangan. Ayrim nomzodlar esa kengash suhbatidan o'ta olmagan.

To'g'ri, menejerlik sertifikatini olish oson emas. Ammo sertifikatga ega bo'lish, direktor bo'ldi, degani emas. Rahbarlikning o'ziga yarasha burch va vazifalari bor. Ba'zida suhbat jarayonida bo'lajak direktor katta ishlarni bajarishni va'da qiladi. Masalan, yangi tayinlangan direktorlardan Toyloq tumanidagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori Nodirjon Melikov, Urgut tumanidagi 156-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori Azamat Vahobovlarni namuna sifatida keltirsak bo'ladi. Ularning faoliyati kengash tomonidan a'lo baholandi. Ammo ba'zi direktorlarning faoliyatida xato va



kamchiliklar ko'pligi kuzatilmoqda. Hali rahbarlik tajribasi kam, yetarli malakaga ega bo'lmagan maktab direktorlariga maslahatlar berilyapti.

Bizni o'ylantirayotgan muammo vakant direktorlik o'rinlaridir. Shaharlarda muammo yo'q. O'lis qishloqlardagi ayrim maktablarda direktorlik vazifasi vakant turibdi. Bu muammoning oldini olish uchun har bir maktab direktori menejerlik serti-

fikati mavjud ikki nafar zaxira tayyorlashi kerak. Masalan, maktab direktorlarining o'quv ishlari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari menejerlik sertifikati olsa, maqsadga muvofiq.

Kengash nafaqat direktorlarni suhbatdan o'tkazadi, balki ularga boshqa vazifalar ham yuklangan. Masalan, kengash yangi tayinlangan direktorlarning 2 yilgacha shaxsiy rivojlanish rejasini kuzatib

boradi va maktab ma'muriyati (direktor va o'rinbosarlar) uchun har chorakda kamida bir marta o'quv seminar-treninglar o'tkazadi. Maktab boshqaruvida sog'lom muhitni ta'minlash maqsadida pedagoglar va ota-onalar o'rtasida so'rov-nomalar yordamida o'rganishlar olib boradi.

Bugun viloyat direktorlar kengashida 9 nafar a'zo mehnat qilmoqda. Ular jamoatchilik nazorati asosida faoliyat olib boradi. Kengash a'zolari viloyatdagi eng namunali, tashabbuskor, mahoratli direktorlar ichidan saralab olingan. Masalan, o'zim rahbarlik qilayotgan Toyloq tumanidagi 26-umumta'lim maktabi har sohada yetakchi bo'lib, o'quvchilarning oliy ta'limga kirishi va bir qator ko'rsatkichlari bo'yicha tumanda birinchi, viloyatda ham yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Maktab pedagoglarining 60 foizga yaqini oliy va 1-toifali o'qituvchilar bo'lib, 30 foiz o'qituvchida xalqaro va milliy sertifikatlar mavjud. Kelgusida bu ko'rsatkichni yanada ko'tarishga harakat qilyapmiz. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim sifati va samaradorligining oshishiga zamin yaratadi.

Yulduz ABDURAHMONOVA,
viloyat direktorlar kengashi a'zosi,
geografiya fanlari nomzodi.



inson omilini qisqartirish orqali

ishonchni oshirish

Jahonda davlat boshqaruvi tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Xususan, raqamli davlat konsepsiyasi orqali davlat xizmatlarini tezkor, shaffof va adolatli tashkil etish imkoniyati yaratilmoqda. Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, inson omilini qisqartirish orqali davlat xizmatlarida samaradorlik oshirilib, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada mustahkamlanmoqda.

O'zbekistonda ham mazkur yo'nalish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, davlat xizmatlarini soddalashtirish, inson omilini qisqartirish va fuqarolar uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli davlat siyosatining muhim jihatlardan biri inson omilini qisqartirishdir. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali qaror qabul qilish subyektivlikni kamaytiradi va mansabdor shaxslarning aralashuvini cheklaydi. Natijada korrupsiya xavfi pasayadi, xizmat ko'rsatishda adolat va tenglik ta'minlanadi. Bu esa fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasida davlat boshqaruvi raqamlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Unda davlat xizmatlarini soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va fuqarolarga qulay sharoit yaratishda raqamli texnologiyalarning o'rni muhim ekanini ta'kidlandi.

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida dunyoda ish o'rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o'zgarmoqda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to'liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo'yicha esa yangi malakalar talab qilinadi.

Shu bilan birga, Murojaatnomada davlat boshqaruvi hamda adolatli sud-huquq tizimini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda raqamlashtirishning ahamiyat-

iga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, davlat xizmatlari va sud-huquq sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali shaffoflikni ta'minlash, inson omilini qisqartirish va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Murojaatnomada ta'kidlanishicha, 2026-yildan boshlab Elektron hukumat platformasi tubdan yangilanadi. Barcha davlat idoralarining 1 mingdan ziyod davlat xizmatlari, 5 mingdan ortiq vazifalari, 200 ta ma'lumot bazasi va axborot tizimi, 100 mingdan ziyod davlat xizmatchisining mahalla, tuman, viloyat, respublika darajasidagi vakolatlari Yagona raqamli platformaga integratsiya qilinadi.

Platformaga kelib tushgan murojaatlar, ularni ijrochilarga taqsimlash va ko'rib chiqish muddatini nazorat qilish sun'iy intellekt orqali amalga oshiriladi.

Sodda qilib aytganda, mahalladan tortib respublika darajasida hal bo'ladigan har bir masalaning ijrochisi, mud-dati, resursi bir joyda ko'rinib turadi.

Eng muhimi, davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilisiz, korrupsiya va ertiqcha byurokratiyadan xoli tizim yaratiladi. Davlat xizmatlarini proaktiv va jamlanma shaklda ko'rsatish tizimi rivojlantiriladi.

Shuningdek, Prezidentimiz o'z nutqida odil sudlov jarayoni “raqamli sud” konsepsiyasi asosida tashkil etilayotgani, endi tergovni ham raqamlashtirish orqali inson huquqlari himoyasini kuchaytirish kabi katta yutuqlarga erishilayotganini alohida ta'kidladi. Bunda jinoyat haqidagi arizani qabul qilishdan boshlab, ishni sudga o'tkazishgacha bo'lgan bosqichlarga sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etiladi va inson omili qisqartiriladi, deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyada davlat xizmatlarini raqamli formatga o'tkazish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruviga keng joriy etish

vazifalari belgilab qo'yilgan. Strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri davlat xizmatlarini fuqarolar uchun qulay va tezkor qilish, byurokratiya va inson omilining salbiy ta'sirini kamaytirishdir. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar orqali davlatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash ham ustuvor vazifalardan sanaladi. Misol uchun, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali fuqarolar ko'plab xizmatlarni onlayn tarzda olish imkoniga ega bo'lib, ilgari talab qilingan qog'oz hujjatlar va idoralarga shaxsan borish zarurati sezilarli darajada kamaygan. Shu bilan birga, elektron sud-huquq tizimlari va raqamli nazorat platformalari ham davlat faoliyatining shaffofligini ta'minlash va fuqarolarning ishonchini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu hujjat raqamli islohotlarni tizimli va barqaror ravishda amalga oshirish, shu orqali davlat va fuqaro o'rtasida samarali va ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli davlat siyosati davlat boshqaruvi zamonaviylashtirishga qaratilgan muhim islohot hisoblanadi. Bu islohotlar nafaqat davlat xizmatlarini tezkor va samarali qilishga, balki fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga ham qaratilgan. Inson omilini qisqartirish orqali subyektiv qarorlar va byurokratik to'siqlar kamaytirilib, xizmat ko'rsatishda adolat va shaffoflik ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, elektron davlat xizmatlari, onlayn murojaatlar, soliq va to'lov tizimlarining raqamlashtirilishi fuqarolarning davlat faoliyatini oson kuzatishiga va davlatning ochiqlik darajasi oshishiga imkon bermoqda. Natijada davlat va fuqaro o'rtasida ishonchli, samarali va barqaror aloqalar shakllanmoqda, bu esa rivojlanayotgan jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

Elyor ULUG'MURODOV,
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Halollik vaksinasi" tamoyili bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining asosiy maqsadiga aylandi. Bu jarayon faqat jinoyatlarning oqibatlari bilan kurashishdangina iborat bo'lmay, balki korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish, shaffoflikni ta'minlash, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish hamda manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarish orqali "korrupsiyadan xoli muhit" yaratishga qaratilgan keng qamrovli tizimli islohotlar majmuidir.

HALOLLIK VA SHAFFOFLIK YO'LIDA

Davlat siyosatining ushbu ustuvor yo'nalishi viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi tizimida ham qat'iy va tizimli choralar ko'rish orqali izchil amalga oshirilmoqda. Asosiy maqsad – korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, ya'ni voqea sodir bo'lishini kutmasdan, uning ildizlarini quritish hisoblanadi.

Bu borada boshqarma tizimida korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish uchun mas'ul bo'lgan komplaens-nazorat tuzilmasi tashkil etilgan. Ushbu tizim korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga bevosita mas'ul. Shu bilan birga, boshqarma xodimlarining yig'ilishlariga adliya va prokuratura kabi vakolatli organlarning vakillari jalb qilinadi. Bu hamkorlik orqali qonunchilik ijrosi ustidan kuchli nazorat o'rnatish va xodimlarga korrupsiyaning xavf-xatarlari, odob-axloq qoidalariga rioya qilish hamda xizmat vazifasidagi xatoliklar uchun javobgarlik masalalari yuzasidan tushuntirishlar berib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan manfaatlar to'qnashuviga nisbatan murosasiz yondashuv qo'llanilib, boshqarma komplaens-nazorat tuzilmasi prokuratura bilan hamkorlikda bunday to'qnashuvlarni aniqlab, ularni bartaraf etish choralarini ko'rmoqda. Xususan, "Davlat fuqarolik

xizmati to'g'risida"gi Qonunda davlat fuqarolik xizmatchisi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqli emasligi belgilangan. Unga ko'ra ilgari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan ayrim xodimlarga tadbirkorlik subyektlaridagi ulushlarini belgilangan muddatda realizatsiya qilish talabi qo'yilgan. Bu talabni bajarmaganlarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi haqida ogohlantirish aynan yuqoridagi qonun talablari ijrosini ta'minlashga qaratilgan qat'iy amaliy choralar sirasiga kiradi.

Viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi misolida ko'ringanidek, institutsional nazorat (komplaens), profilaktika (manifestlar to'qnashuvini boshqarish) va huquqiy ma'rifat (huquqiy ongni oshirish)ni birlashtirgan bunday kompleks yondashuv davlat xizmatida halol va shaffof boshqaruv tizimini yaratishga asos bo'ladi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish – bu chuqur huquqiy asosga, yaxshi rivojlangan institutsional tizimga va amaliy profilaktika mexanizmlariga ega bo'lgan keng qamrovli davlat strategiyasidir. Aholining va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini uzluksiz oshirishga qaratilgan bunday murosasiz yondashuv mamlakatda "korrupsiyadan xoli muhit"ni yaratishning asosiy kafolati bo'lib qolmoqda.

Shuhrat NORBOYEV,
viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari.

Хар бир таълим даргоҳининг шуҳратини макон ва замонда доимий ошириб борувчи вакиллари бўлади. Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университетининг ана шундай фидойи устозларидан бири, таниқли археолог олима, маҳоратли педагог, профессор Аванесова Нона Армаисовна ҳисобланади.

Нона Аванесова 1941 йил 1 февралда Боку-да таваллуд топган. Тақдир тақозоси билан 1962 йилда Самарқандга, қариндошлариникига меҳмонга келиб, шаҳарнинг табиати, бетакрор археологик ва меъморчилик ёдгорликлари ҳамда кўрқига мафтун бўлади-ю, шу ерда қолишга жазм қилди. 1963 йилда Самарқанд давлат университетининг тарих факультетига ўқишга кириб, 1965 йилда уни имтиёзли диплом билан битирди. Ўқиш жараёнида раҳбарият эътиборига тушиб, аспирантурада ўқишга тавсия қилинади. Аввал катта лаборантлик вазифасида, сўнгра Афросиёб шаҳарчасини тарихий-археологик жиҳатдан ўрганиш муаммолари лабораториясида кичик илмий ходим вазифасида ишлай бошлайди.

1968 йилда Санкт-Петербургдаги Давлат эрмитажнинг ёдгорликларни сақлаш ва қайта тиклаш бўлимида стажёр-тадқиқотчиликни ўтади. Бу марказда у етакчи мутахассислар раҳбарлигида археологик топилма манбаларни консервация қилиш – сақлаш, тиклашнинг янги технологик усулларини ўрганиш ҳамда келажакдаги фаолиятида бу касб асқотди. Санкт-Петербург университетининг археология кафедрасида аспирантурани ўтади ва «Андронов маданияти тарихи бирлигининг муаммолари» мавзусида номзодлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилди.

Kadastr sohasi korrupsiyadan xoli bo'ladi(mi?)

Kadastr agentligi hamda davlat kadasrlari palatasi viloyat boshqarmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi" hamda "Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi" ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Xodimlar orasida noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida 2025-yilda 55 marotaba profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Korrupsiyaga moyilligi mavjud 44 nafar xodim bilan alohida profilaktik suhbatlar tashkil etilgani xizmat intizomini mustahkamlash va mas'uliyatni oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

460 nafar xodim korrupsiyaga qarshi o'quv mashg'ulotlariga jalb qilindi. Ularning 104 nafari yuqori xavfli funksiyalarni bajaruvchi bo'linmalar xodimlari hisoblanadi. "Samarqand kadastr" telegramm kanali

orqali kadastr sohasidagi muammolar, jumladan, korrupsiya holatlari bo'yicha murojaat qilish uchun Dkpuz_bot yaratilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasizlik tamoyili ustuvor bo'lib, qonunbuzilishga yo'l qo'ygan 7 nafar xodimga intizomiy ta'sir choralari ko'rildi va 9 nafar xodim bilan mehnat shartnomalari bekor qilindi. Shu bilan birga, manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarni bartaraf etish bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirildi.

Korrupsiya holatlari yuzasidan viloyat prokuraturasiga 5 ta xizmat tekshiruv hujjatlari yuborilgan bo'lib, ulardan 4 tasi bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Sanjarbek NAZAROV,
boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi.

Археологиянинг заргар олимаси

Н.Аванасова 1986-1993 йилларда СамДУ археология кафедрасига раҳбарлик қилди. Унинг мудирлик йилларида кафедра ҳузурида археология музейи ташкил қилинди. Қоратепа тоғининг Сазагон қишлоғи, Сурхондарё вилоятидаги Шеробод туманига қарашли ёдгорликларда талабаларнинг археологик амалиётини ўташ учун дала лабораториялари ташкил қилинди. Шунингдек, бир неча ўрта таълим мактабларида Н.Аванесова ташаббуси ва маслаҳатлари туфайли ўлкашунослик музейлари очилди. Жом қишлоғидаги ўрта таълим мактабида, Шеробод мактабларидан бирида ташкил қилинган ва фаолият кўрсатаётган ўлкашунослик музейлари шулар жумласидандир.

Олима ўтган асрнинг 90-йилларидан бошлаб қарийб 20 йил давомида Самарқанд давлат университети археологик экспедициясининг Сурхондарё воҳаси Шеробод туманида олиб борилаётган ишларга раҳбарлик қилиб, қизиқарли ва самарали тадқиқот ишларини бажарди. Қадимги Бактрия археологиясини ўрганиш бўйича катта ҳажмдаги археологик манбалар тўплаб, улар билан «Сўзлашиб», натижаларини янгилик сифатида фанга киритди. Жумладан, жез даврига оид Бўстон VI, VII номи билан фанда маълум некрополларни амалиёт ўтовчи талабалар иштирокида янги, замонавий технология асосида қазиб ўрганиб, мамлакатимизнинг жанубий сарҳадларида жез даврида яшаган қабила-қавмларнинг ижтимоий, иқтисодий, маънавий, маданий ва ҳўжалик тарихига оид бой манбаларни тўплаб, илмий таҳлилдан ўтказиб, фанга киритди.

Профессор Н.Аванесова бир неча ой давомида Франциянинг Сарбон университетида «Евросиёда дашт қабиалари тарихи муаммолари» мавзусида махсус курс ўқиди.



Олима 2002 йилдан буён университетимиздаги археология музейига раҳбарлик қилиб келади. Ҳозирги вақтда музей нафақат университетда, балки республика олийгоҳлари орасида ягона бўлиб, у нафақат илмий лаборатория, балки ажодларимиз ақл-заковати билан яратилган моддий-маданий меросимизни ўрганиш ва тарғиб қилишнинг илмий-маърифий марказига айланган.

Профессор Н.Аванесованинг илмий ва мураббийлик хизматлари давлатимиз томонидан муносиб тақдирланган. Жумладан, «Ўзбекистон Республикаси Олий таълим аълочиси» нишони ҳамда вазирлик, вилоят ҳокимлиги ва университет раҳбарияти томонидан қатор фахрий ёрликлар билан мукофотланган.

Ўзининг самарали меҳнати билан Самарқанд фарзандига айланиб, катта ҳурмат-эътибор қозongan, бу йил ўзининг 85 ёшини қарши олаётган олимага узоқ умр, сиҳат-саломатлик тилаб қоламиз.

Одил ЭРҒАШЕВ,
Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети археология кафедраси мудири, доцент.

РЕКЛАМА, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Tangatarov Xolbuta Isoqulovichga (2024-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Ne'matov Asatullaga (2024-yil 19-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Rustamov Zokiriddin Ashurbayevichga (2024-yil 16-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 13-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Alirizayev Zarifga (1993-yil 15-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi 200-uy 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Asadova Muxabatga (2020-yil 21-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilura Hasanovna notarial idorasida marhum Ashurova To'tiga (2011-yil 18-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Muxamadiyeva Kibriyaga (2024-yil 7-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Jiyanova Izzat Ravshanovnaga (2023-yil 29-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Ashurov Israrli Yarbekovichga (2002-yil 10-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Sadiyev Rustamga (2021-yil 8-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Sharafutdinova Nelli Mingazovnaga (2025-yil 30-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Samarqand viloyat kengashi hamda barcha tarmoq kasaba uyushma kengashlari jamoalari O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Toyloq tuman bo'linmasi kengashi raisi Qobil Sobirovga onasi **Meylixon BOBOMURODOV**aning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Kitobxon inson xo'rlanmaydi

Ko'pchilik 30 yildirki oilasidagi notinchliklar tufayli qiynalib, qayerga borishni bilmayotgan ayollarga yordam berish og'irlik qilmaydimi, deb so'rashadi. Charchadim, degan paytingizda darvozangiz oldida bolalari bilan abgor ahvolda turgan ayolni ko'rsangiz, qanday holatga tushasiz? Albatta, unga yordam berishga oshiqasiz. Yarim tundami, saharmi, yordam so'rab kelgan odamni qaytarib bo'lmaydi. Har holda men boshqacha yo'l tutolmayman. Oilamizda shunday tutum ko'rib o'sganim uchun kimdadir yordam bersam, yuragim taskin topadi, vujudimga yana kuch qo'shiladi.

30 yildirki zo'ravonlikka, tazyiqqa uchragan xotin-qizlarga davlat idoralari bilan hamkorlikda ijtimoiy, huquqiy va boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatib kelmoqdamiz. Markaz haqida ba'zida birovdan eshitib kelayotgan ayollar bor. Bizning ayollar har doim ham zo'ravonlikka uchragan payti davlat idoralari eshigiga borishni o'ziga ep ko'rmaydi. Iloji boricha, o'sha qiyin vaziyatda oshkor qilinmaydigan,

“yaralarini” tuzatib beradigan tashkilotga muhtoj bo'lishadi. Jamiyatda nodavlat notijorat tashkilotlarining mavjudligi, ularning qo'llab-quvvatlashi sababi ham shundan. O'tgan yil 300 nafarga yaqin ayollar oilasidagi turli muammolar tufayli markazimizga keldi. Keyingi yillarda davlat idoralari bilan hamkorligimiz tufayli bu ko'maklarning sifati oshayapti, bu ayollarga ko'mak berish imkoniyatlarimiz kengaydi.

Bu yerda yashayotgan ayollarning farzandlari bog'chalarga bepul qatnayapti. Maktab yoshidagi bolalar esa markaz yaqinidagi ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu yil hokimliklar tomonidan uch nafar ayolga uy berildi.

Yillar davomida zo'ravonlikka uchrayotgan ayollar bilan ishlab, ularning muammolarini o'rganish davomida bir narsaga amin bo'ldim. Farzandlarimizni o'qitishimiz kerak. O'g'ilmi, qizmi – farqi yo'q, albatta, o'qishi zarur. Bilimli, dunyoqarashli inson o'zini xo'rlatib qo'ymaydi va birovni ham xo'rlaymaydi. Oliy ma'lumotli bo'lmas, lekin kitobxon bo'lsin.

Mamlakatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi bir fikr e'tiborimni tortdi.



“Mana, mashina berib bo'lsa ham bolalarni kitob o'qishga qaytaryapmiz-ku, bu ishlarimizni, albatta, davom ettiramiz!” dedilar. Bu gapning zamirida juda katta bir g'oya, yirik muammolarga yechim bor. Ayniqsa, xotin-qizlarning oliy ta'lim muassasasida tahsil olishiga imtiyozlar berilayotgani, o'qishini davom ettirishi, kasb-hunar egallashi uchun katta mablag' sarflanayotgani bejiz emas. Bularning bari xotin-qizlarning jamiyatda o'z o'rnini topishi, oilasini uddalashi, farzandlarini bugungi kun bilan hamnafas tarzda tarbiyalay olishiga yo'naltirilayotgan investitsiyadir.

2025-yilda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan tashkil etilgan “Inson faxri” milliy mukofoti bilan taqdirlandim. Bu yil yanayam shijoat bilan ishlashni maqsad qilganmiz. “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida nodavlat notijorat tashkilotlari har doimgidan ko'ra faolroq bo'lishi kerak, deb o'ylayman.

Bibisora ORIPOVA,
“Rahmdillik” nodavlat notijorat tashkiloti rahbari.

Yonimizdagi odamlar

Kibrni bilmaydigan HISOBCHI

Shokir Hamroyev Ishtixondagi Chinoq qishlog'ida tug'ilib o'sgan. O'rta maxsus ma'lumot olgach, Samarqandda qoldi. Qarasa, shu yerda ham buxgalterlik qilsa bo'ladi. Maktabda yaxshi o'qiganligi, intiluvchanligi, qolaversa, odobi



uchun “xaridori” ko'paydi. O'shalardan biri – men. 1996-yilda «Ko'ksaroy» tarqoq gazetasining muharriri edim. Shokir bilan ishlab, huzur qilardim: kulishni ham, yig'lashni ham sidqidildan, samimiy bajaradi. Ishda ham shunaqa. Ba'zan gazetani o'qib, o'zicha nimalardir yozadi ham. Lekin biror ish topshirgudek bo'lsangiz, «mayli, mayli» deydi-da, bajarishdan erinmaydi. Topshirilgan har bir ishni puxta, pishiq qiladi.

Odatda, hisobchilik sohasida to'g'risidan fikri buzug'i ko'p bo'ladi. Ehtimol, maoshning kamligi yoki rahbarining nopokligi ularni shunday holga tushirgandir. Ammo kamina Sh.Hamroyev bilan ishlab, bunday fe'lini ko'rmadim: qanoati ham, sabri ham yetarli, nafsini tiya oladi. Chunki shaharda ishlab,

ijarama-ijara yashab, Dilbar kelin bilan birga to'rt qiz, bir o'g'lini voyaga yetkazish ham katta tajriba-da! Hammasini o'qitdi, ishli qildi.

Ana shu fazilatlarini, haloligini hisobga olib Sh.Hamroyevni «Zarafshon» gazetasiga taklif etdik. U qisqa muddatda buxgalteriyamizni tartibga oldi. Hisob-kitobni raqamlashtirdi. Har bir so'mimizni oqilona ishlatishtirishni o'rgatdi.

Bundan tashqari, Shokir bag'rikengligi, samimiyligi bilan jamoada hurmat topdi. Baland ovozda kulsa ham, birovga baland gapirmaydi. Shunday odamlarni ko'rganingda “otasiga rahmat” deysan!

Bugun Sh.Hamroyev 60 yoshga to'ldi. Kamtar, samimiy hisobchimizni ushbu quvonchli kuni bilan tabriklaymiz!

Farmon TOSHEV.

OMONQO'TON tog'lariga ayiq qaytdi

Omonqo'ton qishlog'i Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarini bog'lovchi “Taxtiqoracha” dovonida joylashgan. Hududning so'lim tabiati, sof havosi o'ziga xos bo'lib, to'rt faslda ham mahalliy va xorijiy sayyohlar bilan gavjum.

O'tgan yil ushbu mahallaga “Turizm qishlog'i” maqomi berilishi hududda turizmni rivojlantirish, mahalliy va xorijlik sayyohlarning tabiat go'zalligidan bahramand bo'lishi, maroqli hordiq chiqarishi uchun keng imkoniyat hamda qulayliklar yaratmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-martdagi qarori bilan mazkur hududning o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini, o'rmon resurslarini muhofaza qilish, ko'paytirish va qayta tiklash maqsadida “Omonqo'ton” milliy tabiat bog'i tashkil etildi.

Ushbu maskan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tasarrufida faoliyat yuritib, noyob tabiiy boyliklarni asrash va kelajak avlodlarga sog'lom muhit qoldirishga qaratilgan muhim loyihalardan biri hisoblanadi.

— Urgut ixtisoslashtirilgan davlat o'rmon xo'jaligining 1,5 ming gektar yer maydoni milliy bog' uchun ajratilgan, — deydi “Omonqo'ton” milliy tabiat bog'i direktori Azamat Amrullayev. — Shundan 1000 gektari qo'riqxonaga zonasi, 400 gektari rekreatsiya, 100 gektari esa xo'jalik yuritish hududlaridir. Asosiy maqsad — yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simlik va hayvonot



dunyosi turlarini muhofaza qilish, o'rmon resurslarini saqlash va eko-turizmni rivojlantirish.

Qisqa vaqt ichida bog' hududida “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida”gi Qonun talablari asosida qat'iy tartib o'rnatildi. Ilgari aholi tomonidan chorva boqish, daraxt kesish, dorivor o'simliklarni terish holatlari uchragan bo'lsa, qarordan keyin bu kabi noqonuniy harakatlarga chek qo'yildi. Targ'ibot ishlari kuchaytirilib, aholiga tabiatni asrash nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlar oldidagi burch ekani tushuntirildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Omonqo'ton hududida 1300 dan ortiq o'simlik turi, 120 dan ziyod hayvon va jon-zotlar yashaydi. Ularning katta qismi O'zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan. Ayni paytda 15 nafar xodim ana shu noyob boylikni asrab-avaylash yo'lida xizmat qilmoqda.

— Ko'rilgan choralar samarasi o'laroq, tabiat tiklanmoqda, — deydi Azamat Amrullayev. — Qushlar, sudralib yuruvchilar va yovvoyi hayvonlar soni oshdi. Ilgari kam uchraydigan, “Qizil kitob”ga kiritilgan 37 tur o'simlik hozir hududda keng tarqalmoqda. Milliy bog' ilmiy tadqiqotlar uchun ham ochiq. Samarqand davlat universitetining botanika va zoologiya kafedralari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, noyob turlarni o'rganish va ko'paytirish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Omonqo'ton tog' loilasini in-vitro usulida ko'paytirish tajribasi muvaffaqiyatli o'tkazilib, keng hududlarda ekish orqali go'zal manzara yaratildi.

Ov qilish taqiqlanganligi sababli ko'chib yuruvchi qushlar va hayvonlar ham bu hududga qayta boshladi. Qariyb 70 yildan so'ng Zarafshon qirg'ovulining paydo bo'lishi, shuningdek, ona ayiqning ikki bolasi bilan bog' hududiga kirib kelishi tabiat tiklanayotganining yorqin dalilidir.

Omonqo'ton tog'larida ko'p asrlilik Zarafshon tog' archasi, do'lna, uchqat, achchiq bodom kabi noyob daraxtlar o'sadi. Shuningdek, 1878-yilda ekilgan aylant, akatsiya, eman, zarang, yasen va qirim qarag'ayi kabi daraxt ko'chatlari hozirda hududni quyuq o'rmonzor-ga aylantirgan. Oxirgi monitoring natijalariga ko'ra, bir million tupdan ortiq yosh nihol tabiiy ravishda ko'paygan va avval qurib qolgan o'ndan ortiq buloqlar ko'zi ochilib, tog' bag'ridan zilot suv oqmoqda.

“Omonqo'ton” milliy tabiat bog'i xodimlarining qisqa vaqt ichida amalga oshirgan sa'y-harakatlari o'z samarasini bermoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni butun go'zalligi bilan asrab-avaylash bugun har qachongidan ham dolzarb ekani ushbu hudud misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

VIJDONNING BUGUNGI SO'ROG'I

Qarindoshlar
quda-anda bo'lishi
oqibatida tug'ilgan
nogiron farzandingiz
uchun nega
davlatdan yordam
so'raysiz?



Muzeyda namoyish etilayotgan bronza dubulg'a eramizdan avvalgi VI-VII asrlarga oid bo'lib, sak qabilasi jangchisining bosh kiyimidir. Mazkur dubulg'a 1952-yilda Samarqand fosfat zavodi qurilishi jarayonida ekskavatorchi tomonidan topilgan va muzeyga topshirilgan. Ushbu ashyo nodir hisoblanib, Samarqand muzeyidan boshqa faqatgina Qirg'izistonning Bishkek muzeyida mavjud. Dubulg'a juda yaxshi saqlangan, u jang vaqtida askarlar bosh va bo'yin qismini dushman hujumidan himoya qilish vazifasini bajargan. Dubulg'aning orqa va yon qismi pastki tomonlarida maxsus doira shaklidagi teshiklar mavjud bo'lib, katta ehtimol bilan ushbu teshiklarga askar bo'yin qismini himoya qiluvchi metaldan ishlangan to'r biriktirilgan. Lekin metall to'r bizgacha saqlanmagan. Ashyoda saqlanib qolgan botiq izlar jang vaqtida sohibi boshini bir nech marta turli jarohat yoki o'limdan saklab qolganligidan dalolat beradi. Bronza dubulg'a 2022-2025-yillar davomida Fransiyaning Luvr muzeyi va Germaniyaning Jeyms-Simon galereyalarida namoyish qilingan.

To'lqin BO'RIYEV,

“Samarqand” davlat muzey-qo'riqxonasi tarix bo'limi boshlig'i.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 838 nusxada chop etildi. Buyurtma 33. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda